

**Boshlang`ich sinflarda tarbiyaning ta'lif bilan uzviyligi****Hakimova Gulnoza Ismailovna***Namangan viloyat Pop tuman 65 -maktab**boshlang`ich ta'lif o`qituvchisi*

*Annotatsiya: mazkur maqola tarbiyaning muhim jihatlari, barkamol shaxsni tarbiyalashning o`ziga xos ahamiyati haqida yozilgan.*

*Kalit so`zlar: vazifa, mahorat, o`qish faoliyati, mehnat, yosh avlod, tarbiya, jamiyat, tamoyil*

Ta'larning asosiy vazifasi o`quvchilarni bilimlar bilan qurollantirish bo`lsa, tarbiya o`quvchining jamiyatimizning qonunlariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy masala va ko`nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir. Abdulla Avloninyning «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo`lsa ham bir biridan ayrilmaydigan birining biriga bog`langan kabitur» deb takidlashi bejiz emas. Ma'lum bo`ladiki ta'lif va tarbiyani bir biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vositasi bilim berib tarbiyalash tamoyiliga ko`ra tarbiyalab bilim berish bilmog`i lozim. Bu fanning maqsadi esa o`quvchi-yoshlarga, talabalariga tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish mahoratiga ega bo`lgan bunday boy qadriyatlardan keng va oladigan zarur metod usullarini tanlab bilishga qodir bo`lgan iqtisodchi-pedagoglarni tayyorlashdan iboratdir. Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat, masalasidir” degani ila maqsadlar xaqli ekanligini, hayotning o`zi isbotlab turibdi. Tarbiyaning eng muhim vazifasi yosh avlodda mustahkam e'tilqod hamda ularga asoslangan ma'naviy xulq-atvorni hosil qilishdir. Boshlang`ich ta'lif jarayonida uning natijalari darhol nomoyon bo`ladi va ularni tekshirish mumkin. Bolaning o`sishi va tarbiya olishi, uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi, ijtimoiy foydali mehnat, ijtimoiy ishlar o`yin va o`qish

faoliyati, bo`sh vaqtdan oqilona foydalanish kabilar bolalarning hayotida katta ahamiyatga ega bo`ladi. Bolalarning bunday xilma -xil faoliyatlarini to`gri tashkil etish, uni ikki kishi alohida sifatlar, xarakter xislatlari, odatlar tarkib toptirishga qaratish tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi. O`qituvchi-tarbiyachi tomonidan tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qilingandagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik ma'lum bir tartib bo`lishi mumkin. Shunday qilib tarbiya avvalo tarbiyalanuvchi shaxsning tarkib topish jarayoniga rahbarlik qilishni taqozo etadi. Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlar o`qituvchi-tarbiyachilar sinf rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular tarbiyani jamiyatning maqsadi hamda vazifalariga movofiq ravishda tashkil etadilar. Tarbiya jarayoni o`z-o`zini tarbiyalash to`gri tarbiya berish bilan birga sodir bo`ladi va ayni vaqtda to`g`ri tarbiya natijasi hisoblanadi. O`z-o`zini tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo`lish uchun o`quvchi o`zini to`gri baholashni, bilishga, o`rganishga, hayotda o`zi intilishi lozim bo`lgan idealni aniq tushungan holdagini o`zidagi ijobjiy sifatlarni va kamchiliklarni ko`ra olish mumkin. Boshlang`ich sinf o`quvchisining xatti-harakatidagi ayrim kamchiliklarni tuzatishga to`g`ri keladi. Bu kamchiliklar avvalgi tarbiya jarayonida ko`pincha oilada tarkib topgan bo`ladi. O`qituvchi o`z harakatlarni va ota-onalaring harakatini bu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratishi lozim. Odatda buning uchun bolalarnining oiladagi hayot sharoitlarini o`zgartirish tarbiyalanuvchilarda noto`g`ri keltirib chiqaruvchi sabablarini yo`qotish talab etiladi. Shunday qilib tarbiyalash o`z-o`zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari o`zaro mustahkam bog`langan bo`lib, inson shasini tarkib toptirishning bir butun jarayonida doimo bir- biriga ta`sir o`tkazadi. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo`lib tarbiyaviy jarayoning mazmuni usuli va tashkil etishi masalalarini o`rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan yondashish o`sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog`liq jarayonni ham qaytadan ko`rib chiqishni taqozo etmoqda. Tarbiya jarayoning mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo`lgan va muayyan qonuniylarda namoyon bo`ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining

tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qilinadigan munosabatlari va o'zoro ta'sir ko'rsatish ekanligi alohida ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'grisida"gi qonuni oila, davlat oldidagi mas'uliyatini anglab yetadigan har tomonlama yetuk shaxsni shakllantiruvchi, intelektual va ilmiy kuchlarni taraqqiy ettirishdan yuksak madaniyatlarini belgilab beradi. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g`oyaviy, ahloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi. Jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o`zlashtiradi, bu o`zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo`ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada va bilimni o`zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulg`aygani sari bu faollik tobora ko`proq mustaqil xususiyatlarga ega bo`lib boradi. Tarbiyalanuvchilar o`zlarida dunyo qarashni tarkib toptirishga, o`z-o`zini takomillashtirish tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga ko`nika boradilar. O`quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish madaniy va diniy bilimlarni egallahsga bo`lgan talablarni shakllantirish, malakalarni oshirib tobora boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish juda muhimdir. O'zbek xalqini ma'naviy merosini o`rganishda va rivojlantirishda milliy o`ziga xosligi, ma'naviy xususiyatlari hisobga olinib xalq pedagogikasi an'nalariga suyangan holda ish ko`rilishi maqsadga muvofiq. Kishilik jamiyatiga muhabbat tabiat muhofazasi, madaniy yodgorliklarni saqlash ishlariga jalb qilish lozim. Ma'naviy qadriyatlar va g`oyalar har xil millat o`quvchilarini birlashtiradi, o`quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi. Xalq pedagogikasining bola tarbyasidagi boy tajribalari hayotga to`la tadbiq etilmaganligi, buyuk allomalarning pedagogik qarashlari sharqona urf-odatlari, boy an'analari hayotga joriy etilmaganligi tarbiya borasida talay qusurlarning yuzaga kelishiga sabab bo`lgan. Xalqimizning ko`p asrlik qadriyatlарини, улкан ва boy madaniy merosini chuqur bo`lmasdan milliy o`zlikni

anglash, milliy g`urur tuyg`usini qaror toptirish mumkin emas. O`zbek xalqi ko`p asrlik tarixiy taraqqiyotga katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo`lib xizmat qiladi. Ismoil –al Buhoriy, al Xorazmiy, Beruniy, Farobi, Abu Ali ibn Sino, Yusuf-Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy Sherazi, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Fadiddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o`quvchilar go`zal axloq baxt, insof poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo`ladilar. Insoniylik o`z tarkibiga insonning eng yahshi axloqiy xususiyatlarini ya`ni odamlar o`rtasida o`zoro yaxshi munosabatda bo`lish do`stlik, ota-onaga sadoqatlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go`zal fazilatlarni qaror toptirishga ahamiyat bergenlar. Bola o`qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg`ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. O`quvchilar yaqin kishilarining (ota-onasi,o`quvchilari tarbiyachilarining) munosabatlarini yaxshi bilsa, bu unga ishda yordam bersa shundagina bola pedagogik ta`sir o`tkazishga ochiq va moyil bo`ladi. O`quvchi – do`st, murabbiy, yo`l boshlovchi bo`lgandagina o`quvchilar o`zlarining ichki olamini ochib ko`rsatadilar. Yuqorida aytganimizdek, tarbiya tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o`z ichiga olgan ikki yoqlama jarayondir.